

---

## SHAHRIMIZDAGI TO'RTTA MAHALLADA SPORT MAYDONCHALARI QURILADI

"Tashabbusli byudjet" loyihasining 2-bosqichida shahrimiz yoshlari ham faol ishtirok etishdi. Loyiha doirasida Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona shahar bo'limi yetakchilari tomonidan shahardagi Navbahor, Do'stlik, S.Temur hamda Shakarqishloq MFYlarida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, shuningdek, ommaviy sportni keng rivojlantirish maqsadida sport maydonchalarini qurish takliflari ilgari surildi.

Tanlovga qo'yilgan takliflar yoshlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi hamda komissiya bayoni qarori bilan yuqoridagi loyihalar g'olib deb topilgandi. Bugun esa yoshlarimizning orzulari ushalmoqda.

Ayni kunlarda "Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'inidagi mini futbol maydonchasining qurilish ishlari boshlandi. Sport maydonchasi tez kunlarda sportsevar yoshlar ixtiyoriga topshiriladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati  
2022-12-12 23:32:07